

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**



**Samarqand davlat pedagogika  
instituti rektori**

**prof.Sh.Sh.Negmatova**

**10.00.02 – O‘ZBEK ADABIYOTI IXTISOSLIGI BO‘YICHA  
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN  
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

**DASTURI**

Ushbu dastur Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - sonli bayonnoma)

**Tuzuvchilar:**

**S.A.Yuldosheva** Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**L.I.Usarova** Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**I.H.Yoqubov** Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, pedagogik ta’lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish, sohaga Finlandiyaning ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 408-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qaroriga asosan O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti alohida oliy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”i oliy ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmonida aks etganidek, o‘zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini qayd etish joiz. O‘zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi.

O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonining ushbu dasturi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tuzildi va taqdim qilingan mavzular, nazorat savollari tadqiqotchilar bilim saviyasini

aniqlashga yetarli kafolatdir.

Dastur talabgorlarning yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun zarur bo'lgan muhim manbalarni o'z ichiga oladi.

### **O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (qadimgi davrlardan XV asrgacha)**

**Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari.** Markaziy Osiyo mif va afsonalari. "Avesto" adabiy manba sifatida. "Avesto"ning o'rganilishi tarixidan.

**O'rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.** O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari. To'nyuquq bitigi. Unda shaxs va millat erki .

**Mahmud Koshg'ariy** va uning "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi afsona va xalq qo'shiqlari.

**Yusuf Xos Hojib** hayoti va ijodi. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Dostonning janr xususiyatlari: masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

**Ahmad Yugnakiy** hayoti va ijodining manbalari. Adib hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi. "Hibat ul-haqoyiq"ning janr xususiyatlari. Hadislar mazmunining badiiy talqini va uning ahamiyati.

**Ahmad Yassaviy.** "Devoni hikmat" va hikmatnavislik an'anasi. "Devoni hikmat"ning mavzu ko'lami va ma'rifiy ahamiyati.

**Nosiriddin Rabg'uziy** hayoti va ijodi. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qissasi Rabg'uziy" ("Qissasu-l-anbiyo") – o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.

**Noma janri** va uning takomil bosqichlari. Munozara janri. Temuriylar davrida adabiyotshunoslikning fan sifatidagi taraqqiyoti. Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy va Hofiz asarlarining tarjimalari.

**Qutb** hayoti va ijodi. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari.

**Sayfi Saroyi** hayoti va ijodi. "Gulistoni bit-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g'oya, yoritilgan masalalar.

**Haydar Xorazmiy** ijodi. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Maxzan-ul-asror" dostoni va Nizomiy ijodi. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti.

**Atoyi** ijodiy merosining o'rganilishi tarixidan. Atoyining lirik merosi.

**Sakkokiy** hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. She'riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko'lami.

**Gadoyi** hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi.

**Husayniy** lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro

haqida.

**Sayyid Qosimiyning** “Majma’ul-axbor” dostoni. Shoirning “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma”, “Ilohiynoma” dostonlaridagi ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalar.

**Lutfiyning** ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy lirikasining janr xususiyatlari.

**Alisher Navoiy.** Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. “Xazoyinu-l-maoniy” – lirik qomus sifatida: tuzilishi va janr xususiyatlari. Mavzular doirasi, g‘oyalari va timsollar tizimi.

**“Xamsa”.** “Hayrat-ul-abror” dostoni. Dostonning tuzilishi, janr xususiyatlari. “Farhod va Shirin” dostonida insonparvarlik g‘oyalari, orzu-umidlari Farhod siymosida. “Layli va Majnun” dostonida pok va yuksak muhabbat ifodasi. Undagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g‘oyaviy mundarijasi, timsollar olami. “Sab’ai sayyor”. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste’dodli san’atkor, vafodor yor timsoli. “Saddi Iskandariy” - falsafiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy asar. Navoiyning adolat haqidagi qarashlari talqini.

**“Lison-ut tayr”** falsafiy-tasavvufiy doston sifatida. Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqiga xos munosabati. Simurg’ – najot timsoli.

**“Mahbub-ul qulub”asari.** Asarning adabiy-estetik, axloqiy-ta’limiy ahamiyati, badiiy xususiyatlari.

**Alisher Navoiy manaqiblari.** “Xamsat-ul mutahayyiriyin” asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarida tarixiy shaxslar talqini.

**Adabiyotshunoslik asarlari:** “Majolis-un nafa’is” tazkirasida Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari talqini. “Mezon-ul avzon” va aruz nazariyasi takomili.

**Bobur.** Ijodkor biografiyasi va adabiy merosining o‘rganilishi. Shoir lirikasining janr xususiyatlari. “Boburnoma” - badiiy-memuar asar sifatida. Boburning ilmiy merosi: “Risolai aruz”, “Mubayyin” asarlari.

**Mashrab ijodiy merosi.** Mashrabshunoslik tarixidan. Mashrab lirikasi. “Qissai Mashrab” asarining shoir biografiyasi va adabiy merosini o‘rganishdagi o‘rni.

**So‘fi Olloyor.** Ijodkor adabiy merosining o‘rganilishi. “Sabot-ul ojizin” asarida ma’rifiy masalalar.

**Shermuhammad Munis adabiy merosi.** Ijodkor asarlarining o‘rganilishi. Shoir devonining janrlar tarkibi va badiiyati.

**Ogahiy biografiyasi va adabiy merosi.** Ogahiyshunoslik tadriji. “Ta’viz ul-

oshiqin" devoni. Ogahiy lirikasining janr xususiyatlari va mavzu ko'lami. Ogahiy – tarixnavis. Ogahiy – tarjimon. Ogahiy ijodida Navoiy an'analari.

**Uvaysiy hayoti va ijodi.** Shoiraning lirik merosi. "Shahzoda Hasan" va "Shahzoda Husayn" dostonlari.

**Nodira hayoti va ijodi.** Shoiraning lirik merosi. Nodiraning badiiy mahorati.

**Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining xos xususiyatlari.** Bu davr adabiyotining takomil bosqichlari. O'rganilish tarixi. Yangi o'zbek she'riyatining yuzaga kelish omillari. Zamonaviy nasrning shakllanishi. Drama janrining yuzaga kelish omillari va dastlabki namunalari. Adabiyot va milliy matbuot. Adabiyot va teatr. Adabiy tanqid shakllanishining ijtimoiy-ma'rifiy va adabiy-estetik omillari.

**Komil Xorazmiy.** Shoir lirikasining mavzu ko'lami va badiiyati. Komil Xorazmiy va yangicha ma'rifatparvarlik.

**Feruz - madaniyat va san'at homiysi.** Shoir she'riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko'lami.

**Muqimiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.** Shoir lirikasi. Muqimiy hajviyotining xos xususiyatlari. "Sayohatnoma"lari. Muqimiy ijodida maktub janri.

**Furqat biografiyasi.** Furqatshunoslik tadriji. Shoir lirikasi. Furqat she'riyatida rus mustamlakasiga munosabat masalasi. Furqat va jadidchilik. Tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari. Furqat manzumalari. Furqatning chet ellardagi ijodiy faoliyati.

**Is'hoqxon Ibrat adabiy-ilmiy merosining o'rganilishi.** Ibrat – ma'rifatparvar shoir. Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati: "Matbaai Is'hoqiya", "Kutubxonai Is'hoqiya". Ibratning ilmiy asarlari.

**Mahmudxo'ja Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti.** Ijodiy merosi. "Padarkush" pyesasi. Publitsistikasi. Adabiy-estetik qarashlari. Sayohat xotiralari.

**Abdulla Avloniy.** Adabiy merosi. Avloniyning pedagogik asarlari. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining ma'rifiy-axloqiy va pedagogik qarashlar taraqqiyotidagi o'rni. Avloniy dramalari. "Afg'on sayohati" asari.

**Tavallo adabiy merosi.** "Ravnaqu-l-islom"dagi she'rlarning mavzu ko'lami va badiiyati.

**Fitrat dramaturgiyasi.** She'riyati. Dramalari. "Abulfayzxon" tragediyasining tahlili. Ijtimoiy-publitsistik asarlari: "Munozara", "Hind sayyohi", "Sharq siyosati".

**Hamza adabiy merosi.** Adabiy merosining yangicha talqini. "Devoni Nihoniy"da an'ana va yangilanish. Hamza she'rlarida milliy uyg'onish g'oyasi. Hamza nasri va jadidchilik. "Yangi saodat" milliy romani. Dramalari.

**Abdulla Qodiriy romanlari.** Yozuvchining ilk asarlari. "O'tgan kunlar" – birinchi o'zbek romani. "Mehrobdan chayon" romanining tahlili.

**Cho'lpon adabiy merosi.** Adib biografiyasi va ilk hikoyalari. Lirik merosi. Milliy she'riyatning yangilanishida Cho'lponning o'rni. Shoirning XX asr 20-yillar she'riyati. Ijodkorning 30-yillar lirikasida murosasozlik ohanglari.

**Yangi o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari.** Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Adabiyot tarixini davrlashtirish tamoyillari.

**Milliy istiqlol va adabiyot.** Yangi ijodiy izlanishlar. Realistik tamoyillarning ustuvorligi. Modernistik adabiyot yaratish yo'lidagi izlanishlar.

**Oybek romanlari.** Yozuvchining hayot yo'li. "Qutlug' qon" romanida milliy ozodlik harakatining aks ettirilishi. "Navoiy" romanining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni.

**G'afur G'ulom she'riyati.** Shoir biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Shoirning urush davri she'riyatiga xos asosiy xususiyatlar. "Sharqdan kelayotirman" to'plamidagi she'rlar tahlili.

**Abdulla Qahhor adabiy merosi.** Hikoyanavislik mahorati. Hayot yo'li va ijodi bosqichlari. Adib hikoyalarida realizm an'analari. "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarining tahlili. Abdulla Qahhor romanlari.

**Said Ahmad nasri.** Said Ahmad hikoyalari. Yozuvchi qissalari. "Ufq" trilogiyasi va "Jimjitlik" romani tahlili.

**Odil Yoqubov romanlari.** Yozuvchi biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Odil Yoqubov o'zbek adabiyotida tarixiy-polifonik romanning asoschisi ekani. "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", "Diyonat" romanlari tahlili.

**Pirimqul Qodirov nasri.** Yozuvchining hayot yo'li va dastlabki asarlari. Adibning zamonaviy mavzudagi qissa va romanlari. "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlarining o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni.

**Erkin Vohidov she'riyati.** Shoir lirikasi. G'azal va muxammaslari. Shoirning hajviy she'rlari. Erkin Vohidov dostonlari. "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili. "Istanbul fojiasi" dostoni badiiyati. Erkin Vohidov – tarjimon.

**Abdulla Oripov ijodining o'rganilishi.** Abdulla Oripov lirikasining asosiy xususiyatlari. Shoir she'riyatida milliy ozodlik mavzusi. "Haj daftari", "Hikmat sadolari" turkumlarida diniy-ma'rifiy mavzu talqini. Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati. "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Sohibqiron", "Istiqlol manzaralari" dostonlari tahlili. "Everest va ummon" to'plamidagi she'rlarning falsafiy mohiyati va badiiyati.

**O'tkir Hoshimov.** Adibning hayot yo'li, dastlabki hikoya va qissalari. "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari. "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari tahlili.

**Shukur Xolmirzayev nasri.** Yozuvchining tarjimayi holi va ijodining ilk bosqichi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining o'ziga xosligi. Adibning qissa va romanlari.

**Rauf Parfi ijodi.** Shoir biografiyasi va ilk ijodi. Rauf Parfi lirikasining asosiy xususiyatlari. “Sabr daraxti”, “Tavba” to‘plamlariga kirgan she’rlari tahlili.

**Zamonaviy o‘zbek nasri.** Bugungi o‘zbek hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy qissachilikning taraqqiyot tamoyillari. Bugungi o‘zbek romani.

**Zamonaviy o‘zbek she’riyati.** Bugungi o‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. She’riyatda shakliy izlanishlarning o‘rni. Zamonaviy dostonchilik xususiyatlari. She’riyatda an’ana va yangilanish. O‘zbek she’riyatida jahon adabiy-estetik tafakkuri sintezi.

**Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi.** Dramaning janriy belgilari. Bugungi o‘zbek dramaturgiyasining xususiyatlari. O‘zbek dramalarining tili. O‘zbek dramalarida milliy ruh ifodasi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev H. “Qutadg‘u bilig”da folklorizmlar. – Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005.
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – Toshkent, 2006.
3. Adizova I. So‘zumni o‘qub anglag‘aysen o‘zumni... – Toshkent, 2008.
4. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2006
5. Ahmad Said. Saylanma. Uch tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1980-1983. Jimjitlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1989.
6. Azimov U. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
7. Boltaboev H. Mumtoz so‘z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004.
8. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
9. Vohidov E. Yaxshidur achchiq haqiqat. – Toshkent: Nur, 1992.
10. Vohidov E. Saylanma. Ikki tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1982
11. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. – Toshkent: 1994 O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
12. Yoqubov O. Saylanma. Uch tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1985-1987.
13. Yoqubov O. Diyonat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1979.
14. Jabborov N. Zamon, mezon, she’riyat. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015
15. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. T.: Ma’naviyat, 2015
16. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. Toshkent:
17. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015
18. Zulfiya. Asarlar. Uch jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1983-1986.
19. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent: Muharrir, 2011.

20. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. – Toshkent, 2020.
21. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
22. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotdagi janrlar poetikasi. – Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004.
23. Mirtemir. Asarlar. To‘rt jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1980-1983.
24. Muxtor A. Asarlar. To‘rt tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1980-1982.
25. Murod Tog‘ay. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 1994
26. Murod Tog‘ay. Otamdan qolgan dalalar. Roman. – Toshkent: Sharq, 1994
27. Murod Tog‘ay. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. Roman. – Toshkent: Sharq, 2001
28. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2005
29. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990-1995
30. Olimjon H. Mukammal asarlar to‘plami. Besh jildlik. – Toshkent: Fan, 1975-1994.
31. Oripov. A. To‘liqasarlar to‘plami. To‘rt jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2001.
32. Parfi R. Sabr daraxti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1986.
33. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997.
34. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent, 2002.
35. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik va tekstologik tadqiqi. T.: Akademnashr, 2011.
36. Sodiq S. XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2005.
37. Fitrat. Chin sevis. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1997.
38. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000.
39. Xolmirzaev Sh. Uch jildlik. – Toshkent: Sharq, 2003.
40. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1994-1995.
41. Shayxzoda M. Asarlar. 6 tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1969-1974.
42. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (1-2 jild). – Toshkent: Fan, 2003, 2005
43. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon. Romanlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1992.
44. Qodiriy A. Obid ketmon. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1960.
45. Qodiriy A. Kichik asarlar. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1969.
46. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1987-1989.
47. Qodirov P. Saylanma. Uch jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1987-

1988.

48. G'ulom G'afur. Asarlar. 12 tomlik. – Toshkent: Fan, 1970-1978.
49. Hoshimov O'. Saylanma. Ikki jildlik. – Toshkent: Sharq, 1993.
50. Hoshimova D. "Boburnoma"ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish muammolari. – Toshkent: 2007.
51. www.literature.uz
52. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., "O'qituvchi" nashriyoti. 1999.
53. Sanjar Sodiq. XX-XXI asrlar o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
54. Fitrat. Chin sevis. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1997.
55. Abdulla Qodiriy asarlari: O'tgan kunlar, Mehrobdan chayon. Romanlar. T, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
56. Abdulla Qodiriy. Kichik asarlar. T., O'zadabiynashr, 1969.
57. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994-1995.
58. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T., "Fan", 1990-1995.
59. G'afur G'ulom. Asarlar. 12 tomlik. T., "Fan", 1970-1978.
60. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987-1989.
61. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. Besh jildlik. T., "Fan", 1975-1994.
62. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1969-1974.
63. Mirtemir. Asarlar. To'rt jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-1983.
64. Zulfiya. Asarlar. Uch jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983-1986.
65. Asqad Muxtor. Asarlar. To'rt tomlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-1983.
66. Said Ahmad. Ufq. Toshkent, 2019
67. Said Ahmad. Saylanma. Uch tomlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-1981.
68. Said Ahmad. Jimjitlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989.
69. Odil Yoqubov. Saylanma. Uch tomlik. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985-1987.
70. Odil Yoqubov. Diyonat. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.
71. Pirmqul Qodirov asarlari: Saylanma. Uch jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987-1988. Avlodlar dovoni. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989.

72. Erkin Vohidov asarlari: Saylanma. Ikki tomlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986. Iztirob. T., "O'zbekiston", 1992. Yaxshidur achchiq haqiqat. T., "Nur", 1992.

73. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar to'plami. Sakkiz jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001-2016.

74. O'tkir Hoshimov. Saylanma. Ikki jildlik. T., "Sharq", 1993.

75. Shukur Xolmirzayev. Uch jildlik. T., "Sharq", 2003.

76. Rauf Parfi. Sabr daraxti. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986.

77. Tog'ay murod asarlari: Ot kishnagan oqshom. Qissalar. T., "Sharq", 1994. Otamdan qolgan dalalar. Roman. T., "Sharq", 1994. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman. T., "Sharq", 2001.

78. Shavkat Rahmon. Saylanma. T., "Sharq", 1997.

79. Usmon Azimov. Saylanma. T., "Sharq", 1995.

**O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri**

**I.Yoqubov**

**Tillar fakultetini dekani**

**v.b.prof. I.Utayeva**

